

## **“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadorining 12-son qarori**

2022-yil 24-fevral

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 38-uy.

### **KUN TARTIBI:**

1. Jamiyat taftish komissiyasi a’zosining vakolatini muddatidan ilgari tugatish.
2. Jamiyat taftish komissiyasining a’zosini saylash.
3. Jamiyat kuzatuv kengashining a’zosini saylash.
4. “O‘zkimyosanoat” AJning kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizomini tasdiqlash.
5. “O‘zkimyosanoat” AJning taftish komissiyasi to‘g‘risidagi nizomini tasdiqlash.

### **Kun tartibidagi masala yuzasidan **qaror qabul qilindi:****

1. Jamiyat taftish komissiyasi a’zosi – Davlat aktivlarini boshqarish agentligi boshqarma boshlig‘i Taxirov Jamshid Utkurovichning vakolati muddatidan ilgari tugatilsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi departament boshlig‘i o‘rinbosari Jumayev Sardor Nurmaxmatovich Jamiyat taftish komissiyasi tarkibiga saylansin.
3. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a’zo tayinlangunga qadar Davlat aktivlarini boshqarish agentligi boshqarma boshlig‘i Taxirov Jamshid Utkurovich Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylansin.
4. “O‘zkimyosanoat” AJning kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizomi yangi tahrirda 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
5. “O‘zkimyosanoat” AJning taftish komissiyasi to‘g‘risidagi nizomi yangi tahrirda 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
6. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisi (Mirzamahmudov) tasdiqlangan ichki hujjatlar jamiyat faoliyatida tatbiq etilishini ta’minlasin va qat’iy amal qilinishini nazoratga olsin.

*Qaror rasmiylashtirilgan sana: 24.02.2022-yil*